

O'ZBEKISTON TABIIY SHAROITI VA RESURLARINI IQDISODIY
GEOGRAFIK JIHATDAN BAHOLASH

*Termiz Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya ta'lim yo'nalishi talabasi
Olimqulov Yashnar Maxmadamin o'gli
Samadov Jamoliddin Esan o'gli
Narziyev Furqat Fayzullo o'g'li*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston respublikasining geografik o'rni, dunyo hamjamiyatida tutgan nufuzi, tashqi iqtisodiy aloqalari, eksport va import imkoniyatlari haqida so'z boradi. Tashqi iqtisodiy aloqaning bugungi kundagi holati, takliflar, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar yoritilgan. Shuningdek xuquqiy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tashqi aloqa, iqtisod, xuquq, resurs, O'zbekiston, agrotexnologiya, tumanlar, Surxondaryo, oziq-ovqat, dehqonchilik.

Abstract: This article talks about the geographical location of the Republic of Uzbekistan, its influence in the world community, foreign economic relations, export and import opportunities. Today's state of foreign economic relations, proposals, aspects that should be paid attention to are highlighted. The legal basis is also explained.

Key words: Foreign relations, economy, law, resource, Uzbekistan, agrotechnology, districts, Surkhandarya, food, agriculture.

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ko'p jihatdan, uning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga bog'liq. Ular birgalikda hududning tabiiy-resurs salohiyatini belgilaydi, bu salohiyat esa foydalanadigan tabiiy boyliklar bilan bir qatorda, ulardan foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatlar, zahiralardan tashkil topadi. Binobarin, odatda, tabiiy resurs salohiyat baholanayotganda nafaqat real borliq, balki imkoniyat ham nazarda tutiladi va bu imkoniyatlardan foydalanish mamlakat iqtisodiy rivojlanish istiqbollari asosida yotadi. Shu o'rinda prezidentimizning quyidagi so'zlarini keltirib o'tish joizdir. "Barchamizga ayonki, O'zbekistan boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega"

Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning umumiy jihatlari bilan bir qatorda ularning o'zaro farqlari ham mavjud. Umuman olganda, tabiiy sharoit ko'proq muhit ma'nosida tushuniladi, u ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydi, undan moddiy ne'matlar yaratilmaydi; tabiiy sharoit aholi yashashi va ishlab chiqarishni joylashtirish uchun sifat ko'rsatkichlar kasb etadi, ya'ni u qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Masalan, joyning iqlimi, yer usti tuzilishi kabilar uning tabiiy sharoitini ifodalaydi. Tabiiy

resurslar esa (resurs-zahira, boylik) ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi va ular miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Tabiiy resurslar tugaydigan va tugamaydigan qismlarga, tugaydiganlari esa, o'z navbatida, tiklanadigan va tiklanmaydiganlarga bo'linadi.

Mamlakatimiz Yevrosiyo va Markaziy Osiyoning deyarli qoq o'rtasida joylashgan.


Davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 km bo'lib, shundan 2203 km yoki 1/3 qismi Qozog'iston Respublikasiga, 1721 km Turkmanistonga, 1161 km Tojikistonga, 1069 km Qirg'izistonga va 137 km Afg'oniston Respublikasiga to'g'ri keladi. Respublika hududi g'arbdan sharqqa 1425 kilometr ga cho'zilgan, shimoldan janubga bo'lgan masofa esa - 930 km.

Eng baland nuqtasi Hazrati Sulton cho'qqisi (Hisor tizmasi) - dengiz sathidan 4643 m balandlikda, eng past nuqtasi Mingbuloq cho'kmasi (Qizilqum cho'li) - minus 12 m.

Mamlakatimizning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining Orol dengiziga tutash qismida, 47.61` sh.k., janubiy nuqtasi Termiz shahri yaqinida - 37°11` sh.k., g'arbiy nuqtasi Ustyurtda - 56° 00` shq.u. va sharqiy nuqtasi Andijon viloyatining chekkasida 73°10` shq.k. uzoqlikda joylashgan.

O'zbekiston tabiiy, iqtisodiy hamda siyosiy geografik o'rnining eng muhim xususiyati uning Dunyo okeanidan uzoqda, Yevrosiyo materigining ichkarisida joylashganligidan iboratdir.

Bunday geografik o'rin nafaqat mamlakat iqlimining shakllanishida, balki uning ijtimoiy- iqtisodiy va geosiyosiy rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa umumgeografik qonuniyatlardan biridir.



O'zbekiston Respublikasining tabiiy xaritasi

Eng avvalo, ta'kidlash joizki, O'zbekiston hududining "markaziy" geografik o'rnini o'z ichida, xususan halqaro ahamiyatga ega bo'lgan Buyuk Ipak yo'lida, uning asosiy bog'lovchi bo'g'inlaridan biri sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan. Yurtimizning jahon madaniyati, fani va iqtisodiyoti taraqqiyotiga ta'siri ayni shu davrda yuqori bo'lgan.

Hozirgi sharoitda, ya'ni "Okean sivilizatsiyasi" bosqichida respublikaning quruqlik ichkarisida joylashganligi birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu yerda iqtisodiy geografik o'rinning tarixiylik (o'zgaruvchanlik) xususiyati o'z ifodasini topadi. Iqtisodiy geografik o'rin (IGO) - bu ma'lum bir joyning (mamlakat, viloyat, shahar va h.k.) o'zidan tashqarida o'rnatilgan geografik obektlarning (tog', daryo, dengiz, shahar, davlat, foydali qazilma, shu joyning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy madaniy rivojlanishiga ta'siri demakdir. Bunday ta'sir vaqt o'tishi bilan ajralib turadi, qulay joy noqulay va aksincha, noqulay joy qulay o'rniga ham bo'lishi mumkin.

Asosiy iqtisodiy geografik qonuniyat bu yerda shundan iboratki, har bir joy o'zining IGO'ni qulaylashtirishga, raqobatbardoshligini oshirishga intiladi. IGO - iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish va hududiy majmualar qatorida muhim (fundamental) tushunchasi hisoblanadi.

IGO iqtisodiy geografik bilimning o'ziga xos "kaliti" sanaladi. O'zbekiston Respublikasi garchi Hind okeaniga, Shimoliy muz okeaniga qaraganda nisbatan yaqinroq bo'lsa-da, geosiyosiy jihatdan u ayni ko'proq shimol yo'nalishida "ochiqroq". Janubda va janubi-sharqda tog'li hududlar bilan chegaralanganligi (bu mamlakatimizning asosiy tabiiy geografik xususiyatlarini belgilab beradi), siyosiy jihatdan esa uncha barqaror vaziyatga ega bo'lmagan (ayniqsa Afg'oniston Respublikasi) davlatlar bilan qo'shnichiligi, hozircha, nisbatan yaqin bo'lgan Hind okeani, bandargohlariga chiqish uchun noqulayliklar tug'diradi.[24]

Umuman olganda, davlatimizning Dunyo okeaniga chiqishi va halqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishida quyidagi mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlar mavjud: Qozog'iston orqali Rossiya Federatsiyasining Shimoliy muz okeani va Tinch okean portlariga; Turkmaniston va Kavkaz orqali Qora dengizga va undan O'rta dengiz - Atlantika okeaniga; Afg'oniston, Pokiston yoki Eron orqali Hind okeaniga; Turkmaniston, Eron va Turkiya orqali Istanbulga, O'rta Yer dengizi va undan Atlantika okeaniga; Qirg'iziston va Xitoy Xalq Respublikasi orqali Tinch okeaniga. Yuqoridagi yo'nalishlar yoki transport yo'laklari (koridorlari)dan foydalanish imkoniyatlari bir xil emas.

Hozirgi kunda ularning amaldagisi asosan birinchisi, ya'ni Qozog'iston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi yo'nalishi hisoblanadi. Qolganlari esa, turli sabablarga ko'ra, ahamiyati past yoki yo'q darajada. Xususan, sharq yo'nalishida yoki TRASEKA loyihasining amalga oshirilishi, Buyuk Ipak yo'lining qayta tiklanishi va

janubiy yoʻnalishining ishga tushirilishiga mamlakatimiz rivoji uchun oʻta katta ahamiyat kasb etgan boʻlar edi.

Oʻzbekiston Respublikasining Dunyo xaritasida mavqei uning makrogeografik oʻrnini tasvirlaydi, mamlakatimizning va Markaziy Osiyoda davlatlari mintaqasida joylashganligi esa mezogeografik oʻrnini aks ettiradi. Markaziy Osiyo mintaqasi umumjahon nuqtai nazaridan qaraganda juda muhim geostrategik oʻringa ega. Ayniqsa, bu yerda yirik yoqilgʻi-energetika (koʻmir, neft, tabiiy gaz, uran) zahiralarning mavjudligi jahonning yetakchi mamlakatlari - AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiyaning katta qiziqishiga, intilishiga sabab boʻlmoqda. Qolaversa, mintaqaning soʻnggi yillarda jadal iqtisodiy rivojlanishi nihoyatda muhim geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy maydoni 4,0 mln. kv.km. dan ortiqroq, aholisi, 2019-yil 1-yanvar maʼlumotlariga koʻra, 72,9 mln. kishi atrofida. Oʻzbekiston Respublikasi ushbu mintaqada xududi boʻyicha ikkinchi, aholi soniga koʻra esa birinchi oʻrinda turadi. Mamlakatimiz Markaziy Osiyo mintaqasi maydonining 11,2, aholisining qariyb 48,5 foizini tashkil qiladi. Yuqorida qayd etilganidek, Oʻzbekiston Markaziy Osiyo geosiyosiy mintaqasining markazida joylashgan. Uning ayni markazda, oʻrtada joylashganligi iqtisodiy va siyosiy geografiya nuqtai nazaridan quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

1. Markazda, demak respublikaning qoʻshnilari koʻp. Oʻzbekiston shimol va shimoli-gʻarbda Qozogʻiston Respublikasi bilan, sharqda Qirgʻiziston, janubi- sharqda Tojikiston, janubda Afgʻoniston va gʻarbda Turkmaniston bilan chegaradosh.

2. Respublikaning markaziy geografik oʻrni uning qoʻshni davlatlar bilan iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga, ijtimoiy, madaniy va siyosiy aloqalarini olib borishga qulaylik tugʻdiradi.

3. Markazda joylashganlik qoʻshni davlatlar uchun bozor vazifasini bajaradi.

4. Bu yerdan mamlakatning tranzit vazifalarini boshqarish imkoniyatlari mavjud.

5. Markaziy oʻrin mintaqada geosiyosiy vaziyatni shakllantirish va uni boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

6. Respublikamiz mintaqada ichkarisida joylashganligi bois, uning yoʻllari, tarixi, aholisining urf-odatlarini, mintaqaning oʻzaro tutash hududlarda turli- tumanligi, dini va boshqa transchegaraviy xususiyatlarini belgilab beradi.

7. Oʻzbekiston daryolari ham oʻtkinchi (transchegaraviy) shaklga ega asosiy gidrografik shaxobchalari - Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon qoʻshni davlatlar hududida boshlanadi va h.k

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak respublikamizning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini doimo asrab-avaylab oqilona foydalanishimiz kerak. Tabiat inson, va jamiyat vujudga kelishidan oldin ham mavjud boʻlgan.

Butun taraqqiyot davomida insonning tabiatga, uning boyliklariga taʼsiri kuchayib borgan. Shu sababli tabiatni, atrof muhitni muhofaza qilish hozirgi kunning eng dolzarb olamshumul (global) muammosi hisoblanadi.

Tabiat va jamiyat oʻrtasidagi muvozanatni mumkin qadar dinamik holatlar saqlash, tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida ekologik xavfsizlikni taʼminlashga katta eʼtibor qaratilishi ham bejiz emas.

1992-yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMTning atrof-muhitga bag'ishlangan konferentsiyasida qabul qilingan Barqaror rivojlanish kontsepsiyasi ayni shu maqsadlarni ko'zlaydi.

Sodda qilib aytganda, bu g'oyaning tub mohiyati biror-bir tabiiy resursdan foydalanishda atrof muhitga zarar yetkazmasdan, uning kelajak avlod uchun ham qolishini, ulardan bizdan keyin ham bahramand bo'lishini nazarda tutadi.

So'nggi yillarda turli xil tabiiy boyliklarni qazib olish (neft, gaz, ko'mir har xil rudalar va b.), yangi yerlarni o'zlashtirish, o'rmonlarni qirqish, ayrim hayvonot turlarining yo'qolib borishi, cho'llanish, tuproq eroziyasi va sho'rlanish kabi noxush vaziyatlar yuzaga kelmokda-ki, ular kelajak avlod uchun xavf tug'diradi.

Binobarin, atrof-muhitni muhofaza qilish, yer-suv melioratsiyasini amalga oshirish, kishilarning ekologik madaniyatini shakllantirish katta amaliy ahamiyatga ega. Respublikamizda ham bunday muammolar yo'q emas.

Ayniqsa, Orol dengizi sathining keskin pasayishi va qurib borishi bu mintaqada xavfli ekologik vaziyatni yuzaga keltirdi.

Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Xorazm va boshqa hududlarda tuproqning sho'rlanishi, Chirchiq-Oxangaron, Farg'ona vodiysi, Navoiy atrofi ekologik holati ham tabiiy resurslardan tug'ri foydalanish va atrof-muhit muhofazasi muammolarini izchil hal etishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoyev "Erkin Va Farovon Demokratik O'zbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz" 2017
2. P. Baratov "o'zbekiston tabiiy geografiyasi"
3. Birjakov M.B, Vvedenie v Turizm: Uchebnik. - Izdanie 8-e, pererabotannoe i dopolnennoe. - SPB.: "Izdatel'skiy dom Gerda", 2006. - 51-55 s.
4. Bogolyubov V.S. Ekonomika turizma: Uchebnoe posobie. dlya stud. VUZov / Bogolyubov V.S., Orlovskaya V.P. - M.: "Akademiya", 2005. - 19-22 s
5. Fayzieva SH. R. "O'zbekistonda turizm rivojlanishining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish". Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2006 y
6. Granberg A.G. Osnov regionalnoy ekonomiki. - M. 2000.
7. Domanskiy R. Ekonomicheskaya geografiya: regionalny aspekt. Per. s pol. - M.: «Novy xronograf» 2010.
8. Mironenko N. S. Vvedenie v geografiyu mirovogo xozyaystva. Mejdunarodnoe razdelenie truda. - M.: «Aspekt Press» 2006.
9. Maksakovskiy V.P. Obshaya ekonomicheskaya i sosialnaya geografiya. Kurs leksiy. Chast 1. - M.: «VLADOS» 2009.
10. Nabiev E. Kayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. - T.: «Universitet» 2000.